

MA'NAVY AHLOQIY TARBIYA
ДУХОВНОЕ И НОРМАТИВНОЕ ВОСПИТАНИЕ
SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION

Ergashboyeva Sarvinoz Erkinjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi
E-mail: sarvinozergashboyeva61@gmail.com
Tel:+99891-146-28-82

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ma'naviy-axloqiy tarbiya haqida umumiy tushunchalar, ma'naviy-axloqiy xulq-atvor, ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari haqida ma'lumotlar berilgan. Axloq va axloqiy ong tushunchalari ma'nosi ochib berilgan.

Kalit soʻz: axloq, ma'naviyat, tarbiya, ma'naviy axloqiy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tushunchalar, ma'naviy-axloqiy xulq-atvor, ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari.

ANNOTATION

This article provides information on general concepts of spiritual and moral education, spiritual and moral behavior, and methods of spiritual and moral education. The meaning of the concepts of morality and moral consciousness is explained.

Keywords: morality, spirituality, education, spiritual and moral education, spiritual and moral concepts, spiritual and moral behavior, methods of spiritual and moral education.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация об общих понятиях духовно-нравственного воспитания, духовно-нравственного поведения и методах духовно-нравственного воспитания. Разъясняется значение признаков нравственности и нравственного сознания.

Ключевое слово: нравственность, духовность, воспитание, духовно-нравственное воспитание, духовно-нравственное воспитание, духовно-нравственное поведение, методы духовно-нравственного воспитания.

KIRISH

Axloq va ma'naviyat chuqur ichki o'zaro aloqadorlikka ega. Zero, ma'naviyat individ mansub bo'lgan guruhlar axloqi ta'sirida yuzaga keladi, axloq esa, o'z navbatida, guruh a'zolari bo'gan individlar ma'naviyatining o'zaro tutash ommaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi. Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezonini bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik,

aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Axloq (arabcha - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir. Axloq - shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. Axloq shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchunгина emas, balki ularni uyg'unlashtirish uchun ham zarur. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag'batlantirish va jazolash.

Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo'ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlarni o'zida birlashtirgan shaxs tavsifi axloqiy tamoyillar deb ataladi. Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o'zlariga odamlar orasidan namuna tanlaydi. Bu axloqiy ideal deb ataladi. Axloqning asosiy qirralari (tamoyillari) - birdamlik (shaxsiy manfaatlarning umumiylikning yuqori ko'rinishi sifatidagi ijtimoiylikka bo'ysundirilishi) va insonparvarlik (shaxsga o'z- o'ziga qadriyat va yakuniy maqsad sifatida munosabatda bo'lish). Axloqiy ongning o'ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n, qadr-qimmat kabilarni keltirib o'tish mumkin. Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olib, axloqning, jamiyat a'zolarining faoliyatiga yo'nalganligi va uni boshqarilishi ma'nosida, faoliyatli tavsifini ko'rsatib o'tish to'g'ri bo'ladi. Axloqiy me'yorlar har bir inson va jamiyat uyg'unlikda mavjud bo'la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko'p asrlik tajribasi natijasidir. Axloq me'yorlari insonning yaxshilik va yomonlikni chegaralash, ezgulik nima ekanini aniqlashga intilishlari natijasida yuzaga kelgan. Axloq me'yor va qadriyatlardan iborat. Axloqning uchinchi elementi esa, shaxs o'zida tarkib toptirishni xohlagan me'yor va sifatlar tarzida ajratib ko'rsatish mumkin. Me'yor - bir turdagi xulq-atvor, takrorlanadigan vaziyat, talab, standart, taqlid uchun misol, ijtimoiy fikr, did, qoida, urf-odat shaklidagi namuna. Me'yorlar ajdodlarning katta ijobiy ahamiyatga ega tajribasini o'zida mujassamlaydi, zero ularda u yoki bu xulq-atvorining ko'plab avlodlar tajribasida sinalgan maqsadga muvofiqligi aks etadi. Ma'naviyat va axloq o'z navbatida tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni taqozo etadi. Ma'lumki, tarbiya yosh avlodni jamiyatda yashashga maqsadli tayyorlash jarayoni bo'lib, maxsus tashkil etilgan davlat va jamoat institutlari orqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va tuzatishlar kiritib boriladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir¹.

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2000.

ASOSIY QISM

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Ma'naviy-axloqiy tarbiya - yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog'liq vazifani shart qilib qo'yadi: birinchidan, jamiyat ongida me'yorlar, tamoyillar, ideallar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko'rmishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o'z xatti-harakatlarini yo'naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya'ni boshqa kishilarga talab qo'ya bilishi va ulaming xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog'liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e'tiqod, ma'naviy moyilliklar, his-tuyg'ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo'lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ulaming ma'naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- o'quvchilarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash;
- xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash;
- axloqiy xulq-atvor ko'rmishlarini shakllantirish².

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi: ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi; ta'lim-tarbiya ishiga o'quvchi shaxsini hurmat qilgan holda yondashish; ma'naviy-axloqiy tarbiyani hayot va amaliyot bilan bog'lab olib borish; o'quvchilarning faolligi; jamoada tarbiyalash; tarbiyaviy ishning tizimliliigi va izchilligi; tarbiyaviy ishning ta'sirchanligi; oila, ta'lim muassasasi, davlat va nodavlat tashkilotlar hamda kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi; o'quvchidagi ijobiy sifatlarga suyanish; o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutish. Tarbiyaning zamonaviy tamoyillari - tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida subyekt-subyekt munosabatlarining o'rnatilishi, dialog nuqtai nazariga muvofiq tarzda shunday xulosaga kelindiki, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun psixik jarayonlarga (inotivasiya, anglash, interiorizasiya va boshqalar) tashqi ta'sirlar ichki, individual-shaxsiyga organik va mustahkam aylanadigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur. Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada turli metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari deganda, o'quvchilarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy

² Pedagogika nazariyasi va tarixi darslik. Toshkent-2010

munosabatlami, shaxsning axloqiy his-tuygʻulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usullari yigʻindisidir³. Maʼnaviy-axloqiy tarbiya metodlarini shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

Maʼnaviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari: hikoya, tushuntirish, etik suhbat, izohlash, nasihat, oʻgit, koʻrsatma, namuna va boshqalar. Maʼnaviy-axloqiy xulq-atvomi shakllantirish metodlari: mashq, oʻrgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq va hokozolar. Maʼnaviy-axloqiy motivasiyani hosil qilishga doir metodlar: ragʻbatlantirish, musobaqa, tanbeh berish kabilar.

Axloq, shaxs maʼnaviyati, maʼnaviy sifatlar, maʼnaviy-axloqiy tarbiya, maʼnaviy-axloqiy madaniyat, maʼnaviy-axloqiy kamolot, maʼnaviy-axloqiy ong, maʼnaviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish, oʻquvchilarning maʼnaviy tarbiyasi, maʼnaviy tarbiyada eʼtiqodning oʻrni, moddiy boyliklar, fan, adabiyot, sanʼat, maorif, din, axloq, odob, xulq, fazilat, xislat, sifat, xatti-harakat, ijobiy xislatlar, salbiy xislatlar, imyon, eʼtiqod, insoniylik, poklik, halollik, rostgoʻylik, toʻgʻrilik.

1. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati

“Milliy tarbiya” tushunchasi koʻp qirrali boʻlib, uning milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yoʻnaltirilgan tarbiyaviy faoliyati, umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli, xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirishdan iborat.

Maʼnaviy qadriyatlar va milliy oʻzlikni anglashning tiklanishi, biror-bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, oʻz istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan koʻp asrlar mobaynida yaratilib kelingan gʻoyat ulkan, bebaho maʼnaviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan nihoyatda muhim vazifa boʻlib qoldi. Biz maʼnaviy qadriyatlarning tiklanishini, milliy oʻzlikni anglashni xalqning maʼnaviy sarchashmalariga, uning ildizlari bilan uzviy bogʻliq, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Jamiyatimizning, xalqimizning ming yillik maʼnaviy-axloqiy yuksalish tajribasini oʻzida jamlagan Islom madaniyatini tiklash oʻz taqdirini oʻzi belgilash, tarixiy xotiraga, madaniy-tarixiy birlikka yega boʻlish yoʻlidagi gʻoyat muhim qadam boʻldi. Maʼnaviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbayi anʼanaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, oʻzaro yordamlashish, kelajak avlod haqida gʻamxoʻrlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari boʻlib kelgan.

Axloqiy tarbiya — shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida maʼnaviyaxloqiy tarbiya muhim oʻringa ega boʻlib, uni samarali tashkil etish oʻquvchida maʼnaviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur boʻlgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini oʻquvchilar ongiga singdirish, ularda axloqiy

³Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi - xalq eʼtiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - Toshkent, Oʻzbekiston, 2000.

ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yorlardir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan mehnatga ilhomlantirish o'qituvchining eng muhim vazifasi hisoblanadi. O'quvchining jamiyatga bo'lgan munosabatida milliy birlik, birdamlik va hamkorlik tuyg'ulari, turli xalqlarga bo'lgan hurmat kabilar yaqqol namoyon bo'lishi zarur. Axloq-odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham o'quvchida jamiyatga bo'lgan hurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishga, axloqiy ongini, o'zini o'zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo'lgan e'tiqodni rivojlantirishga olib keladi. Maktab o'qituvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo'llabquvvatlash, birovning dardiga darmon bo'lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch- qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntirishlari darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - Toshkent, O'zbekiston, 2000.
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2000.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. - Toshkent, O'qituvchi, 1992.
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi darslik. Toshkent-2010
5. Elguzarov, B. B. O. G. L., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA MITANNI DAVLATCHILIGINING O'RNINI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6), 616-619.
6. Erkinov, A. S. O., & Haydarov, S. (2021). YUNON-BAQTRYA PODSHOLIGINING IJTIMOYI TUZIMI, XO'JALIGI VA MADANIYATI. Scientific progress, 1(6), 620-622.
7. Nematov, M. D. O., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI ORGANISHDA SHUMER-AKKAD DAVLATCHILIGINING ORNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).